

Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 201\_\_-yil. Sinflar: 11-“ ”. O‘qituvchi: \_\_\_\_\_

### MAVZU: KIRISH «YANGI TARIX»NING BOSHLANISHI

#### DARSNING MAQSADI:

a) **ta’limiy:** o‘quvchilarga kirish «yangi tarix»ning boshlanishi haqida ma’lumot berish;

b) **tarbiyaviy:** o‘quvchilarda dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga shaxsiy munosabat bildirish malakasini shakllantirish;

d) **rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

#### Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:

a) **tayanch kompetensiya(lar):** TK1, TK2;

b) **fanga oid kompetensiya(lar):** FK1.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars uslubi:** an’anaviy.

**Dars jihozlari:** darslik, tarixshunoslik atamaları lug‘ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

DARS REJASI		
№	Darsning tarkibiy qismi (bosqichlari)	Ajratiladigan vaqt (reglament)
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	Ma’naviyat daqiqasi	
3	O‘tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
4	Yangi mavzuni tushuntirish	25 daqiqa
5	Mustahkamlash	5 daqiqa
6	O‘quvchilarni baholash	5 daqiqa
7	Uyga vazifa berish	

#### DARSNING BORISHI:

**Tashkiliy qism:** O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

**Ma’naviyat daqiqasi:** O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

**Yangi mavzu bayoni:** O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi.

«Yangi tarix» tushunchasi haqida. Olimlar insoniyat tarixining XVI asrdan boshlanadigan davriga «Yangi tarix» deb nom berganlar. Buning sababi shuki, bu davrda kishilarning tabiiy tengligi g‘oyasini, shaxsning erkinligi va sha’ni kabi demokratik tushunchalarni o‘zida aks ettirgan yangicha dunyoqarash shakllandi, dunyoni yangicha tushunish asosida shaxsning tashabbuskorligi, tadbirkorligi uchun keng imkoniyatlar ochildi. Buning natijasida iqtisodiy hayot gurkirab o‘tdi,

ishlab chiqarishning yangi shakllari paydo bo'ldi, mehnat qurollari takomillashdi, sexlar o'rnini manufakturalar egallay boshladi. Yevropaliklarning hayotida ko'plab yangiliklar, ishchanlik, intiluvchanlik kabi yangi belgilar paydo bo'ldi, ularning bir qismi sharqdan kirib keldi.

---

***Kapitalistik jamiyat — xususiy mulkning asosini sanoat korxonalari tashkil etadigan, shuningdek, rivojlangan bozor iqtisodiyoti va yuqori sanoat ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatdir.***

---

**Sharq mamlakatlari taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari.** Sharqda (Osiyoda) taraqqiyotning o'ziga xos tomonlari deganda ko'pchilik kamtarona hayot tarzi, diniy sabr-toqat, yer egaligining o'ziga xos shakli, kishilar hayotining davlat tomonidan tartibga solinishi kabilarni tushunadi. Aslida yangi davr arafasida Sharq mamlakatlarida rivojlanish ancha yuqori edi. Bu davrda texnik, texnologik va madaniy innovatsiyalar keng tarqalgan bo'lib, ularning ko'pchiligi 300—500 va hatto 1000 yil o'tgandan so'ng Yevropada paydo bo'ldi, qisman Sharqdan o'zlashtirildi. Biroq, Yangi davr boshlariga kelib Sharq mamlakatlari Yevropaga nisbatan sezilarli darajada orqada qola boshladi. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat edi: — Sharq davlatlarida ishlab chiqarishga jalb qilinmagan harbiy xarajatlarning umumiy miqdori G'arb davlatlarinikidan ancha yuqori edi (Yevropada — 5—8 %. Osiyoda — 12—15 %); — XVI—XVII asrlardan boshlab Sharq mamlakatlarida transport vositalari (kemalar, portlar, yo'llar, kanallar qurilishi) va kommunikatsiya tizimining (kitob chop qilish, savodxonlik darajasi) rivojlanish sur'atlari G'arb mamlakatlariga nisbatan pasaydi;

**Mustahkamlash:** Darsning ushbu qismida o'quvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

**O'quvchilarni baholash:** O'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o'quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Darsda faol ishtirok etmagan o'quvchilar bilan ishlanadi.

**Uyga vazifa:** o'quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o'qib-o'rganish, qo'shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

O'TIBDO': \_\_\_\_\_

Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 201\_\_-yil. Sinflar: 11-“ ”. O‘qituvchi: \_\_\_\_\_

## MAVZU: Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati

### DARSNING MAQSADI:

- a) **ta’limiy:** o‘quvchilarga Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati haqida ma’lumot berish;
- b) **tarbiyaviy:** o‘quvchilarda dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga shaxsiy munosabat bildirish malakasini shakllantirish;
- d) **rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

### Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:

a) **tayanch kompetensiya(lar):** TK1, TK2;

b) **fanga oid kompetensiya(lar):** FK1.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars uslubi:** an’anaviy.

**Dars jihozlari:** darslik, tarixshunoslik atamaları lug‘ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

DARS REJASI		
№	Darsning tarkibiy qismi (bosqichlari)	Ajratiladigan vaqt (reglament)
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	Ma’naviyat daqiqasi	
3	O‘tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
4	Yangi mavzuni tushuntirish	25 daqiqa
5	Mustahkamlash	5 daqiqa
6	O‘quvchilarni baholash	5 daqiqa
7	Uyga vazifa berish	

### DARSNING BORISHI:

**Tashkiliy qism:** O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

**Ma’naviyat daqiqasi:** O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

**Yangi mavzu bayoni:** O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi. «Buyuk geografik kashfiyotlar» atamasi haqida. «Buyuk geografik kashfiyotlar» atamasi XV asr oxiri — XVII asr o‘rtalarida yevropalik sayyohlar tomonidan amalga oshirilgan yirik geografik kashfiyotlarga nisbatan qo‘llaniladi. Geografik kashfiyotlar esa odamlar uchun shu vaqtgacha noma’lum bo‘lgan yangi yerlarning qidirib topilishidir.

**Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanishi.** Buyuk geografik kashfiyotlarning tashabbuskorlari Portugaliya va Ispaniya dengiz sayyohlari bo'lishdi. Shunday dengiz sayyohlaridan biri, asli Genuyalik, *admiral* Xristofor Kolumb (1451—1506) edi. U o'z oldiga Atlantika okeani orqali Hindistonga boradigan yo'l ochishni maqsad qilib qo'vdi. Nihoyat, X. Kolumb Ispaniya qirollik oilasi bilan Hindistonga yo'l ochish uchun ekspeditsiyani boshlash haqida shartnoma tuzishga muvaffaq bo'ldi. Shartnomaga ko'ra, qirol ekspeditsiyaning xarajatlarini o'z zimmasiga oldi. X. Kolumb 1492-yilning 6-avgust kuni 3 ta kemada birinchi ekspeditsiyasini boshladi.

**Amerikaning kashf etilishi.** 1492-yil 12-oktabr kuni X. Kolumb ekspeditsiyasi a'zolari Karib dengizidagi orollardan biriga kelib tushdi. X. Kolumb bu orolni San-Salvador («Muqaddas xaloskor») deb atadi (hozirgi Bagama orollari davlati hududidagi orol). Shu tariqa Hindistonga olib boradigan suv yo'lini ochish maqsadida uyushtirilgan ekspeditsiya Amerikaning kashf etilishiga sabab bo'ldi

**Keyingi kashfiyotlar.** 1498- yilda Ispaniyadan dengiz sayohatiga chiqqan portugaliyalik Vasko da Gama Atlantika okeani orqali Hindistonga boriladigan dengiz yo'lini kashf etdi. 1519-yilda Is- **P. Magellan.** paniyadan sayohatga chiqqan dengizchi F. Magellan (asli portugaliyalik) Amerika qit'asini aylanib o'tib, Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochdi. 1522-yilda dunyoni aylanib suzish nihoyasiga yetkazildi.

**Mustahkamlash:** Darsning ushbu qismida o'quvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

1. «Geografik kashfiyotlar» atamasiga izoh bering.
2. Qanday omillar Buyuk geografik kashfiyollarga sabab bo'ldi?

**O'quvchilarni baholash:** O'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o'quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Darsda faol ishtirok etmagan o'quvchilar bilan ishlanadi.

**Uyga vazifa:** o'quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o'qib-o'rganish, qo'shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

O'TIBDO': \_\_\_\_\_

Ushbu konspektning *to'liq va fondagi yozuvlarsiz* variantini olish uchun



+998946281992 telegram raqamiga yoki

@mahmudov\_24 telegram adresiga xabar yozing

**Narxi 20 000 so'm**

To'lov FAQAT **click, payme** yoki **paynet\*** orqali

**BOG'LANISH FAQAT TELEGRAM ORQALI!** Telefon qilinganda yoki sms yuborilganda javob bermaslik ehtimoli yuqori

*Qolgan sinf namunalari va boshqa hujjatlar bilan telegram kanalimiz yoki web saytda tanishingiz mumkin.*



Telegram kanal: @uzmaktab

Web sayt: [www.hasanboy.uz](http://www.hasanboy.uz)

\* paynet telefon raqamiga emas

hasanboy.uz